e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/09tsvq61

HAQIQATNI QUROLGA AYLANTIRISH: SIYOSIY AKTORLARNING SAYLOVCHILARNI CHETLASHTIRISH YOKI SAFARBAR ETISHDA NOTO‘G‘RI AXBOROTDAN FOYDALANISHI

Orolova Parizod Mansurjon qizi
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, magistr.
e-mail: parizodorolova77@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/

Annotatsiya.

Maqolada siyosiy subyektlar noto‘g‘ri axborot va dezinformatsiyadan ikki qarama-qarshi maqsadda — ikkilanayotgan yoki raqib nomzodlarni qo‘llab-quvvatlovchi saylovchilarning saylovdagi ishtirokini susaytirish hamda o‘z tarafdorlarini safarbar etish uchun — qanday foydalanishi tahlil qilinadi. AQSH, Janubiy Koreya, Nigeriya va Markaziy Osiyo (O‘zbekiston, Qozog‘iston) tajribasiga oid ikkilamchi manbalarning qiyosiy tahlili asosida bir xil kommunikatsion texnologiyalar ham saylovchilar ishtirokini susaytirishga, ham ularni safarbar etishga xizmat qilishi mumkinligi, siyosiy raqobat cheklangan deb baholangan ayrim sharoitlarda esaesa axborot kanallari ustidan nazorat va davlat resurslaridan foydalanish birinchi o‘ringa chiqishi ko‘rsatiladi. Dezinformatsiyaning saylovdagi faollikka ta’siri haqidagi dalillar asosan korrelyatsion xususiyatga ega ekani, ko‘rilayotgan choralar esa cheklangan bo‘lib, so‘z erkinligiga xavf tug‘dirishi mumkinligi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: dezinformatsiya, noto‘g‘ri axborot, saylovlar, siyosiy ishtirok, ijtimoiy tarmoqlar, saylovchilarni safarbar etish, saylovchilar ishtirokini susaytirish.

ПРЕВРАЩЕНИЕ ПРАВДЫ В ОРУЖИЕ: КАК ПОЛИТИЧЕСКИЕ АКТОРЫ ИСПОЛЬЗУЮТ ДЕЗИНФОРМАЦИЮ ДЛЯ ПОДАВЛЕНИЯ ИЛИ МОБИЛИЗАЦИИ ИЗБИРАТЕЛЕЙ

Оролова Паризод Мансуржон кизи
Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, магистрантка.

Аннотация.

В статье анализируется, каким образом политические субъекты используют недостоверную информацию и дезинформацию в двух противоположных целях — для снижения электоральной активности колеблющихся избирателей или сторонников политических оппонентов, а также для мобилизации собственных сторонников. На основе сравнительного анализа вторичных источников, посвящённых опыту США, Южной Кореи, Нигерии и стран Центральной Азии (Узбекистана и Казахстана), показано, что одни и те же коммуникационные технологии могут использоваться как для подавления электоральной активности, так и для мобилизации избирателей. При этом в условиях отсутствия политической конкуренции на первый план выходят контроль над информационными каналами и использование государственных ресурсов. Отмечается, что доказательства влияния дезинформации на электоральную активность носят преимущественно корреляционный характер, а принимаемые меры имеют ограниченную эффективность и могут создавать угрозу свободе слова.

Ключевые слова: дезинформация, недостоверная информация, выборы, политическое участие, социальные сети, мобилизация избирателей, подавление электоральной активности.

THE WEAPONIZATION OF TRUTH: HOW POLITICAL ACTORS USE MISINFORMATION TO SUPPRESS OR MOBILIZE VOTERS

Orolova Parizod Mansurjon qizi
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Master's Student.

Abstract.

The article examines how political actors use misinformation and disinformation for two opposing purposes: suppressing electoral participation among undecided voters or supporters of political opponents and mobilizing their own supporters. Based on a comparative analysis of secondary sources concerning the experiences of the United States, South Korea, Nigeria, and Central Asian countries (Uzbekistan and Kazakhstan), the study demonstrates that the same communication technologies can be employed both to suppress voter participation and to mobilize the electorate. In noncompetitive political environments, control over information channels and the use of state resources become particularly significant. The article also notes that evidence regarding the impact of disinformation on electoral participation is predominantly correlational, while existing

ISSN 3060-5059 (Online)

countermeasures are limited in effectiveness and may pose risks to freedom of expression.

Keywords: disinformation, misinformation, elections, political participation, social media, voter mobilization, voter suppression.

Kirish. So‘nggi yillarda saylovlar axborot makonidagi kurashning ajralmas qismiga aylandi. An’anaviy ommaviy axborot vositalarining nufuzi pasayib, ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati ortib borayotgan sharoitda dezinformatsiya saylov jarayoniga ta’sir o‘tkazishning arzon, ammo samarasi yuqori bo‘lishi mumkin bo‘lgan usuliga aylanmoqda [1]. Raqamli texnologiyalar fuqarolik faolligini safarbar etishga ham, avtoritar rejimlarning axborot makonini nazorat qilishi va o‘z diskursini keng yoyishiga ham xizmat qiladi [2].

Maqolaning maqsadi — siyosiy subyektlarning noto‘g‘ri va yolg‘on axborotdan ikki qarama-qarshi maqsadda foydalanishini tahlil qilish: qaror qilmagan yoki raqib nomzodlarni qo‘llab-quvvatlovchi saylovchilarni ovoz berishdan chetlashtirish (bostirish) hamda o‘z tarafdorlarini faollashtirish (safarbar etish). Tadqiqot AQSH, Janubiy Koreya, Nigeriya hamda Markaziy Osiyo (O‘zbekiston va Qozog‘iston) misollariga asoslanadi. Asosiy tezis quyidagicha: bir xil kommunikatsion vositalar kontekstga qarab ham bostirishga, ham safarbar etishga xizmat qilishi mumkin, raqobatsiz tizimlarda esa ularning o‘rnini ko‘proq axborot kanallari ustidan nazorat va davlat resurslaridan foydalanish egallaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Noto‘g‘ri axborot (misinformation) — bilmasdan tarqatilgan yolg‘on ma’lumot, dezinformatsiya (disinformation) esa bila turib tarqatilgan yolg‘on ma’lumotdir. M. Bader saylov kontekstida dezinformatsiyani raqiblarni obro‘sizlantirish, ovoz berish jarayoniga ta’sir o‘tkazish yoki saylov o‘tayotgan siyosiy vaziyat haqidagi tasavvurni o‘zgartirish maqsadida bila turib yolg‘on ma’lumot tarqatish deb ta’riflaydi [1]. Uning fikricha, dezinformatsiyaning eng keng tarqalgan shakllari — raqiblarni obro‘sizlantirish yoki ovoz berishga ta’sir qilish uchun tarqatiladigan “soxta xabarlar” (fake news), so‘rovnoma ma’lumotlarini soxtalashtirish yoki manipulyatsiya qilish hamda soxta saylov kuzatuvidir [1]. Yangiliklarga shakl jihatidan o‘xshasa-da, tahririyat jarayonlari va maqsadidan xoli bo‘lgan kontent raqibni obro‘sizlantirish yoki ovozlarga ta’sir qilish uchun targ‘ib etilganda dezinformatsiyaga aylanadi [1].

Dezinformatsiyaning maqsadi siyosiy tuzumga ham bog‘liq. Raqobatli saylovlarda u muayyan partiya yoki nomzodga yordam berish yoki mavjud siyosiy tartibning qonuniyligini shubha ostiga qo‘yish uchun ishlatiladi; raqobatsiz saylovlarda esa uning asosiy vazifasi shu tartib qonuniy ekanligi haqida taassurot yaratishdir [1]. Ushbu maqolada tahlil uchun ikki yo‘nalish ajratiladi: bostirish — ishonchsizlik, chalkashlik va befarqlik orqali raqib yoki shubhali saylovchilarni ovoz berishdan chetlashtirish; safarbar etish — yolg‘on yoki chalg‘ituvchi axborot yordamida o‘z tarafdorlarini harakatga keltirish. Bu ajratish manbalarda aynan shu atamalar bilan berilmagan, u muallifning tahliliy sxemasidir.

Tadqiqot ikkilamchi manbalarning sifat jihatidan qiyosiy tahliliga tayanadi, muallif birlamchi empirik ma’lumot to‘plamagan. Tahlilga quyidagilar jalb etildi: Nigeriyadagi 2023-yilgi umumiy saylovlarga bag‘ishlangan tadqiqot [3] va Demokratiya va taraqqiyot markazining (CDD) hisoboti [4]; Janubiy Koreyadagi 2017-yilgi prezident saylovi tahlili [5]; AQSHdagi 2020-yilgi saylovda “ishtirokchi dezinformatsiya”ni o‘rgangan ish [6]; EXHT/DIIHBning O‘zbekistondagi 2021-yilgi prezident saylovi bo‘yicha yakuniy hisoboti [7]; Rossiyadagi ijtimoiy tarmoqlar va siyosiy ishtirokka oid ikki nashr [8; 9]. Manbalarning dalillilik darajasi turlicha: ular orasida kuzatuv missiyasining rasmiy hujjati [7], ikkilamchi ma’lumotlarga tayangan sifatli tadqiqotlar [3; 5] va faqat bitta shaharda o‘tkazilgan so‘rovnoma [9] bor. Shu sababli har bir xulosa o‘z manbasining imkoniyatlari doirasida bayon etildi.

MUHOKAMA

BOSTIRISH MANTIG‘I: ISHONCHSIZLIK VA CHALKASHLIK YARATISH

Nigeriyadagi 2023-yilgi umumiy saylovlar bostirish mantig‘ining bir ko‘rinishini namoyon etadi. O. Balogunning fikricha, nomzodlar va saylov komissiyasi (INEC) haqidagi noto‘g‘ri axborot saylovoldi kampaniyasidan partiya praymerizlarigacha tarqalgan va mamlakatning ayrim hududlarida ovoz berish faolligining pasayishiga olib kelgan [3]. Biroq bu xulosa ikkilamchi manbalar va nutq tahliliga asoslangan, faollikka ta’sir qilgan boshqa omillar bilan taqqoslanmagan. Muallifning o‘zi INEC hisobotiga tayanib, ovoz berish faolligini oshirish va olinmagan saylovchi guvohnomalari (PVC) muammosi saqlanib qolayotganini ham qayd etadi [3]. Shu sababli noto‘g‘ri axborotni faollik pasayishining yagona sababi sifatida emas, balki mumkin bo‘lgan omillardan biri sifatida qarash o‘rinli. CDD hisoboti ham ijtimoiy tarmoqlardagi yolg‘on va chalg‘ituvchi axborot saylovchilar xulq-atvoriga ta’sir qilib, befarqlik, ovoz berishdan chetlashtirish va saylov tizimiga ishonchsizlikka olib kelishi mumkinligini ta’kidlaydi hamda 2023-yilgi saylovlar oldidan siyosiy va etnodiniy dezinformatsiya tarqatgan yangi onlayn “yangilik” saytlari soni ortganini qayd etadi [4].

Soxta tarmoqlar faoliyati ham tilga olinadi. Balogun BBCning dezinformatsiya bo‘yicha global guruhi tekshiruviga tayanib, Podium Reporters (2021), Reportera (2022) va Parallel Facts (2023) saytlarini keltiradi: BBC xodimining fikricha, ularning yaratilish vaqti muayyan nomzodlarning saylanishiga ta’sir ko‘rsatish niyatini ham, yuqori reklama daromadi olish maqsadini ham anglatishi mumkin; ayrim siyosatchilar bu saytlardagi hikoyalarni ulashgan [3]. Demak, bu holatda siyosiy va tijoriy manfaatlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, tarqatuvchining asosiy maqsadini aniq belgilash qiyin.

Chalkashlik ham o‘ziga xos vosita sifatida qaraladi. Balogun Salihuning fikrini keltirib, “muqobil faktlar” tarqalishi fuqarolarning rost va yolg‘onni farqlash qobiliyatini susaytirishi, jamoat masalalarini muhokama qilish uchun umumiy zamin shakllanishiga to‘sqinlik qilishi va saylangan vakillarni hisobdor qilishni qiyinlashtirishini yozadi [3]. Ishonchsiz deb hisoblangan siyosiy xabarlarga jamiyat befarq munosabatda bo‘lishi mumkin [3]. Shundan kelib chiqib, bostirishni maqsad qilganlar uchun befarqlik ishontirishdan arzonroq natija bo‘lishi mumkin, ammo bu muallifning talqini: ko‘rib chiqilgan manbalarda u empirik jihatdan sinab ko‘rilmagan.

Bostirish axborot kanallariga ham yo‘naltirilishi mumkin, biroq bunda gap dezinformatsiya haqida emas, axborot

oqimini cheklash haqida boradi. EXHT/DIIHB hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonda 2021-yil 2-iyuldan boshlab Twitter, TikTok, VKontakte, Skype va WeChat’ga kirish rasman cheklangan. Bu shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonun talablariga rioya qilmaslik bilan izohlangan; kampaniya davomida mahalliy va xalqaro OAV hamda inson huquqlari tashkilotlarining 60 dan ortiq veb-sayti ochilmagan [7]. Saylovdan keyin, 3-noyabrda, UzKomNazorat Facebook, Instagram, Odnoklassniki, Telegram va YouTube’ga kirishni ham cheklagan, biroq bu cheklov bir necha soatdan so‘ng bekor qilingan va idora rahbari o‘sha kuni lavozimidan bo‘shatilgan [7]. Kuzatuvchilar veb-saytlarni bloklash amaliyoti jurnalistlar orasida o‘z-o‘zini senzura qilishga va jamoatchilik ixtiyoridagi siyosiy axborot ko‘lamining cheklanishiga hissa qo‘shganini qayd etgan [7]. Hisobotda bu cheklovlarning ovoz berish faolligiga ta’siri baholanmagan.

Siyosiy raqobat cheklangan deb baholangan ayrim sharoitlarda esasoxta so‘rovnomalar va soxta kuzatuv ham o‘ziga xos rol o‘ynaydi. Baderning fikricha, soxta so‘rovnomalar saylov natijasi haqidagi tasavvurni o‘zgartirishga, “zombi kuzatuvchilar” esa mustaqil kuzatuvchilarning tanqidiy xulosalarini zararsizlantirishga xizmat qiladi. Muallif Qozog‘istonda 2007-yilgi parlament saylovi va Rossiyada 2018-yilgi prezident saylovi bo‘yicha hukumat tomonidan tashkil etilgan tashkilotlarning qoidabuzarliklar aniqlanmagani haqidagi xulosalarini misol qilib keltiradi [1].

SAFARBAR ETISH MANTIG‘I: TARAFDORLARNI HARAKATGA KELTIRISH

Prochaska va hammualliflar 2020-yilgi AQSH saylovi davrida saylov jarayoni haqidagi uchta yolg‘on yoki chalg‘ituvchi da’vo — Sonoma okrugida byulletenlar tashlab yuborilgani, Merikopa okrugida “Sharpie” markerlari byulletenlarni yaroqsiz holga keltirgani va Antrim okrugidagi “Dominion” ovoz berish dasturi haqidagi da’volar atrofidagi Twitter muloqotini sifat jihatidan tahlil qilgan [6]. Mualliflar “ishtirokchi dezinformatsiya” tushunchasidan foydalanadi: foydalanuvchilar firibgarlikning go‘yo “dalillarini” birgalikda yaratadi va kuchaytiradi, ulardan onlayn va oflayn harakatlarni qo‘zg‘atishda foydalaniladi. Safarbarlik ta’sirchan shaxslarning yolg‘on yoki chalg‘ituvchi xabarlarni tanlab kuchaytirishi, da’voning qanday talqin qilinishi va manbaning ishonchliligiga bog‘liq [6]. Jarayon o‘z-o‘zini mustahkamlovchi sikl sifatida tavsiflanadi: auditoriya chalg‘ituvchi voqelikni birgalikda quradi, oflayn harakatlar esa shu “yasama voqelik”ni yanada mustahkamlaydi [6]. Mualliflarning ta’kidlashicha, bunday da’volar avval saylov tizimiga bo‘lgan ishonchni yemirgan, so‘ngra natijalarni nomaqbul deb topishga, jumladan, “StopTheSteal” kampaniyasi va 2021-yil 6-yanvardagi Kapitoliy voqealariga olib kelgan [6; 140:2]. Shu bilan birga, ular tahlil faqat Twitter ma’lumotlari va 15-dekabrgacha bo‘lgan davr bilan cheklanganini, shu sababli dezinformatsiyaning 6-yanvar voqealariga bevosita ta’sirini to‘liq baholab bo‘lmasligini qayd etadi [6].

Janubiy Koreyadagi 2017-yilgi prezident saylovi safarbar etish mahalliy, partiyaviy va hissiy bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. S. Go va M. Lining fikricha, Koreyada soxta xabarlar asosan nomzodlar yoki ularning saylov shtablari tomonidan yaratilgan, chunki prezident Pak Kin Xe impichmentidan keyin tadqiqotda qayd etilgan siyosiy partiyalar bu xabarlardan o‘z nomzodi yoki partiyasi tarafdorlarini safarbar etish vositasi sifatida foydalangan [5]. Seul milliy universiteti Faktchek instituti o‘tkazgan 177 ta faktchekning 92 foizi beshta yetakchi nomzodga to‘g‘ri kelgan, 67,8 foizida esa yolg‘on bayonotlar siyosatchilarning teledebatlar va saylovoldi uchrashuvlaridagi o‘z chiqishlarida aniqlangan [5]. Shu ma’noda tadqiqotdagi “soxta xabar” tushunchasi nomzodlarning o‘z bayonotlarini ham qamrab oladi.

Tarqatish mexanizmi ham yoshga qarab farqlangan: yoshlar ko‘proq ochiq ijtimoiy tarmoqlardagi postlardan, keksa avlod esa yopiq tarmoqlar (KakaoTalk, BAND) va oflayn aloqalardan foydalangan. Soxta xabar tarqatuvchi manbalarning aksariyati Pak tarafdorlarining Taegeukgi mitinglaridan sal oldin va keyin yaratilgan [5]. “KakaoTalk” va soxta xabarlar bo‘yicha Google qidiruv so‘rovlari dinamikasi mitinglar bilan birga o‘sgan. Mualliflar bundan ishtirokchilar soxta xabarlarni KakaoTalk orqali ulashgan bo‘lishi mumkin, degan xulosa chiqaradi [5]. Ko‘lam katta bo‘lgan: Milliy saylov komissiyasiga ko‘ra, soxta xabarlar oldingi saylovga nisbatan besh baravar ko‘paygan. Saylovchilar ularni ko‘pincha internet va ijtimoiy tarmoqlar (72,6 foiz) hamda televideniye (71,1 foiz) orqali olgan [5]. 2019-yilgi so‘rovnomaga (1500 respondent) ko‘ra, koreyaliklarning 65,9 foizi oxirgi uch oyda soxta xabarga duch kelgan: 18–29 yoshlilarda bu ko‘rsatkich 78,1 foiz, 60 yosh va undan kattalarda 41,2 foiz bo‘lgan. Soxta xabarni olganlarning faqat 38,2 foizi uni qo‘shimcha ravishda tekshirgan [5].

Mualliflar safarbarlik ta’sirini 2012 va 2017-yillardagi saylovlarda yosh guruhlari bo‘yicha ovoz berish faolligini solishtirib baholagan: 20 yoshdagilar orasida faollik 6,0–9,2 foiz punktga, 60 yosh va undan kattalar orasida 1–3,2 foiz punktga oshgan. Shundan ular soxta xabarlar har bir partiya tarafdorlarini safarbar etgan, degan xulosaga keladi [5]. Biroq bu xulosa faollikning yosh bo‘yicha dinamikasiga tayanadi va sababiy bog‘liqlikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri isbotlamaydi: mualliflarning o‘zi faollik o‘sishini impichmentga qarshi va uni qo‘llab-quvvatlovchi guruhlar o‘rtasidagi siyosiy qarama-qarshilik bilan ham bog‘laydi [5].

Safarbar etishni davlat ham yo‘naltirishi mumkin, ammo bunda ishontirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri dezinformatsiya o‘rtasidagi chegara xiralashadi. B. Kurmanovning yozishicha, Qozog‘iston hukumati konstitutsiyaviy referendumda ovoz berishga da’vat qilish uchun TikTok’dan faol foydalangan. Bu davlatning internetda o‘z diskursini saqlashga intilishini ko‘rsatadi [2]. O‘zbekistondagi 2021-yilgi saylovda EXHT/DIIHB kuzatuvchilari amaldagi prezidentning ijtimoiy tarmoqlardagi qamrovi raqiblarnikidan ancha ustun bo‘lganini qayd etgan: uning Instagram sahifasida 3,6 million kuzatuvchi bo‘lgan, ikkinchi eng ko‘p kuzatuvchiga ega nomzodda (Telegram’da) esa 25 ming kuzatuvchi bo‘lgan. Prezidentning barcha ijtimoiy tarmoq kanallarini Prezident matbuot xizmati yuritgan. Mustaqillikning 30 yilligiga bag‘ishlangan yirik reklama bilbordlari ham uni keng targ‘ib qilgan, bu esa davlat va partiya faoliyati o‘rtasidagi chegarani xiralashtirgan [7]. EXHT/DIIHB hisobotida kampaniya faolligi va siyosiy raqobat darajasiga oid tanqidiy mulohazalar bildirilgan [7]. Bu holatlar dezinformatsiyadan ko‘ra davlat resurslari va axborot muhiti ustidan axborotdan foydalanish imkoniyatlari va davlat resurslarining kampaniyadagi o‘rni bilan bog‘liq masalalarga taalluqlidir.

AXBOROT MUHITINING YEMIRILISHI VA XORIJIY ARALASHUV

Bostirish va safarbar etish o‘rtasida sekinroq namoyon bo‘ladigan zararli jarayon — axborot muhitining

qutblanishi mavjud. Go va Li Koreyada soxta xabarlar tanlab ta'sirlanish (selective exposure) va yopiq tarmoqlar sharoitida guruhiy qutblanishni kuchaytirganini, bu esa saylovdan keyin ham saqlanib qolganini ta'kidlaydi [5]. Balogun noto'g'ri axborot tasdiqlanguncha o'z zararini yetkazib bo'lishini, uning ta'sirini keyinchalik kamaytirish qiyin bo'lishi mumkinliginiyozadi [3]. Amerikadagi Sonoma holatida okrug ma'muriyati tuzatish bergan, biroq da'vo "agar to'g'ri bo'lsa, katta gap" kabi ehtiyotkor iboralar bilan ulashilishda davom etgan. Bu esa, mualliflarga ko'ra, tarqatuvchilarni obro' yo'qotish xavfidan himoya qilgan, izdoshlarga esa kuchliroq da'volar qilish imkonini bergan [6].

Xorijiy aralashuv har ikki mantiqqa yana bir qatlam qo'shadi. Bader xorijiy subyektlar tomonidan uyushtirilgan dezinformatsiyada Ayrim manbalarda Rossiya bilan bog'liq holatlarga asosiy e'tibor qaratilishini , biroq boshqa davlatlar ham xorijdagi saylovlarga qarshi dezinformatsiyadan foydalanayotganiga dalillar borligini qayd etadi [1]. U Garvard universitetining Berkman Klein markazi tadqiqotiga tayanib, 2016-yilda dezinformatsiya ta'siridagi saylov yoritilishi asosan Donald Trampning kun tartibiga mos kelganini keltiradi. Brexit kampaniyasidagi botlarga oid tadqiqot esa jamoatchilik fikri, ehtimol, botlar tomonidan manipulyatsiya qilingan, degan xulosaga keladi. Shu bilan birga, botlar ta'sirini aniq belgilash qiyinligi ham ta'kidlanadi [1]. Botlar kompyuter targ'iboti vositasi sifatida ishlatiladi: masalan, Armanistonda 2017-yilgi parlament saylovi paytida AQSH muxolifatni qo'llab-quvvatlab, natijaga ta'sir qilmoqchi, degan soxta xabar botlar orqali tarqalgan [1]. Oddiy fuqarolar ham bilmasdan tarqatuvchiga aylanishi mumkin: 2016-yilgi Niderlandiya referendumidan bir necha oy oldin ukrainalik millatchilar Niderlandiya bayrog'ini yoqayotgani tasvirlangan soxta video Niderlandiyaning bir qator OAVlari tomonidan ulashilgan [1]. Bu misollar manbada mazkur maqolaning asosiy tadqiqot obyekti bo'lmagan holatlarga oid, shu sababli ular faqat kontekst sifatida keltirildi.

Rossiya misolida saylovlardagi dezinformatsiya mexanizmlarini ochib beruvchi dalillar ushbu maqola manbalarida mavjud emas. Moskvada 1000 respondent o'rtasida o'tkazilgan telefon so'rovnomasiga ko'ra, siyosiy muloqot uchun ijtimoiy tarmoqlar eng ommabop vosita (53,4 foiz), respondentlarning 48 foizi onlayn ovoz berish, izoh qoldirish va repost qilishda ishtirok etadi. Mualliflar natijalarni butun aholiga umumlashtirib bo'lmasligini ta'kidlaydi hamda senzura va filtrlash siyosiy muloqot sifatiga salbiy ta'sir qilishini qayd etadi [9]. A. Malkevichning sharhida ijtimoiy tarmoqlarning norozilik namoyishlaridagi ishtirokiga oid roli bo'yicha ikki yondashuv farqlanadi. "Internet-skeptiklar" (Morozov, Gladwell, Esfandiari) ularni targ'ibot va dezinformatsiya tarqatish, muxolifatni kuzatish va norozi fuqarolarning ko'chaga chiqmasdan internetda "ichidagini to'kib olishi" orqali norozilikda ishtirok etish illyuziyasini yaratish vositasi, shu bois siyosiy nazoratni kuchaytirishi mumkin bo'lgan vosita sifatida ko'radi [8]. Muallifning o'zi esa ijtimoiy tarmoqlar norozilik namoyishlarining sababi emas, balki ularni tashkil etish va muvofiqlashtirish vositasi, degan xulosaga keladi [8]. Bu nazariy bahs Markaziy Osiyodagi "tarmoqli avtoritarizm" kuzatuvlari [2] bilan uyg'un, biroq maqolada ko'rib chiqilgan saylov holatlarining empirik tasdig'i hisoblanmaydi.

CHORALAR VA ULARNING CHEKLOVLARI

Nigeriya saylov komissiyasi ommaviy axborot vositalari rahbarlari, internet noshirlari va muharrirlar bilan muloqot o'rnatgan, o'z ijtimoiy tarmoq sahifalari va rasmiy onlayn gazetasi orqali ma'lumot tarqatgan hamda matbuot guruhi a'zolari uchun seminar o'tkazgan. Balogun bu choralar zararning bir qismini kamaytirgan, deb baholaydi [3]. Shu bilan birga, komissiya OAV tarqatgan barcha axborotni saralay olmagan, ko'plab nigeriyaliklar esa X platformasidagi axborotni ishonchli deb hisoblagan [3]. Muallifning o'zi komissiya choralarini yetarli emas, deb baholaydi [3]. Hukumatning mediasavodxonlik, faktchek va ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solish bo'yicha choralari esa "kam natija bergan" [3].

Faktcheking samaradorligi ham cheklangan bo'lishi mumkin. Bader mutaxassislarga tayanib, faktchek natijalari aldanganlarga kamdan-kam yetib borishini va odamlar axborotning yolg'onligi ma'lum bo'lgandan keyin ham uni to'g'ri deb qabul qilishda davom etishini yozadi [1]. Koreyada soxta xabarga duch kelganlarning faqat 6,7 foizi faktcheking materiallari bilan tanishgan [5]. Platformalarning choralari ham sinov bosqichida qolgan. Bader Facebook'ning "Uchinchi tomon faktchekerlari tomonidan bahsli deb baholangan" yorlig'ini keltiradi [1]. Biroq Facebook 2017-yil dekabrida bu yorliqdan voz kechgan va uning o'rniga "Tegishli maqolalar"ni joriy etgan, chunki qizil belgi chuqur ildiz otgan e'tiqodlarni yanada mustahkamlab qo'yishi mumkin edi [10].

Qonunchilik yo'li o'ziga xos xavflarni keltirib chiqaradi. Nigeriyada Senatda taklif etilgan "Nafrat nutqini taqiqlash va internetdagi yolg'on hamda manipulyatsiyadan himoya qilish milliy komissiyasi to'g'risida"gi qonun loyihasi so'z erkinligini poymol qiladi, degan e'tirozlarga sabab bo'lgan [3]. O'zbekistonda ham yolg'on axborot tarqatgani uchun jinoiy javobgarlik jurnalistlar va blogerlarning mustaqil faoliyati doirasini toraytirib, o'z-o'zini senzura qilishga olib kelishi EXHT/DIIHB tomonidan qayd etilgan [7]. EXHTning OAV erkinligi bo'yicha vakili OAVni bloklash yoki taqiqlash dezinformatsiyaga yechim emasligini bildirgan. DIIHBning 2012-yilgi media-monitoring qo'llanmasida esa "dezinformatsiya", "soxta xabarlar" va hatto "ijtimoiy tarmoqlar" tushunchalari yo'q. Shu bois kuzatuv missiyalari bu hodisani tahlil qilishda yetarli vositalarga ega emas [1].

NATIJALAR

Qiyosiy tahlil natijalari 1-jadvalda umumlashtirilgan. Jadvaldan ko'rinadiki, ko'rib chiqilgan holatlar ikki guruhga ajraladi: raqobatli muhitda (Nigeriya, Janubiy Koreya, AQSH) noto'g'ri axborot bostirish yoki safarbar etish vositasi sifatida tahlil qilingan; «O'zbekiston va Qozog'istonga oid ko'rib chiqilgan holatlarda manbalar dezinformatsiyadan ko'ra axborot kanallari va davlat resurslari ustidan nazoratga e'tibor qaratgan.

1-jadval. Saylovlarda bostirish va safarbar etish holatlarining qiyosiy ko'rinishi

Mamlakat	Asosiy mantiq	Asosiy vositalar va dalillar	Manba
Nigeriya (2023)	Bostirish (ehtimoliy ta'sir)	Nomzodlar va saylov komissiyasi haqida noto'g'ri axborot; yangi onlayn "yangilik"	[3; 4]

ISSN 3060-5059 (Online)

		saytlari. Faollikka ta'sir ikkilamchi manbalarga tayanib ko'rsatilgan	
Janubiy Koreya (2017)	Safarbar etish	Nomzodlar va shtablardan chiqqan soxta xabarlar; yopiq messenjerlar va oflayn tarmoqlar. Ta'sir yosh guruhlari bo'yicha faollik dinamikasidan xulosa qilingan	[5]
AQSh (2020)	Safarbar etish (natijalarni nomaqbul deb topishga qaratilgan)	"Ishtirokchi dezinformatsiya": uchta voqea bo'yicha firibgarlik "dalillari"ni Twitter'da jamoaviy yaratish va ta'sirchan shaxslar orqali kuchaytirish	[6]
O'zbekiston (2021)	Axborot kanallarini nazorat qilish; davlat resurslaridan foydalanish	Ayrim ijtimoiy tarmoqlarga kirishni cheklash; 60 dan ortiq veb-saytning ochilmasligi; prezident matbuot xizmati yuritgan kanallarning ustun qamrovi	[7]
Qozog'iston (referendum)	Davlat tomonidan targ'ibot va safarbar etish	Referendumda ovoz berishga da'vat qiluvchi TikTok kampaniyasi	[2]
Rossiya	Dalillar cheklangan	Saylovdagi dezinformatsiya bo'yicha dalillar yo'q; faqat Moskvadagi so'rovnoma va protest ishtiroki haqida sharh	[8; 9]

Tahlil to'rtta asosiy natijani beradi. Birinchidan, bir xil kommunikatsion texnologiyalar ham bostirishga, ham safarbar etishga xizmat qilishi mumkin; farq ularni kim va qanday maqsadda qo'llashidadir. Ikkinchidan, har ikki holatda ishonchsizlik, hissiy ta'sir va tarqatish tarmoqlari (soxta saytlar, yopiq messenjerlar, ta'sirchan shaxslar) muhim o'rin tutadi. Uchinchidan, ta'sir haqidagi dalillar asosan korrelyatsion bog'liqliklarga yoki mualliflarning talqinlariga tayanadi: Nigeriyada faollikning pasayishi va Koreyada safarbarlikka ta'siri to'g'ridan-to'g'ri isbotlanmagan. Bu keyingi tadqiqotlar uchun ochiq masala bo'lib qolmoqda. To'rtinchidan, ko'rilgan choralar yetarli emas va ba'zan teskari natija berishi mumkin (Facebook'ning bahsli yorlig'i), qonunchilik yo'li esa so'z erkinligiga xavf tug'diradi.

XULOSA

Noto'g'ri axborot saylov jarayonida ikki yo'nalishda ishlatilishi mumkin. Ishtirokni kamaytirishni istagan subyektlar nomzodlarga, saylov organlariga va ovozlarning halol sanalishiga nisbatan ishonchsizlik yaratishga intiladi. Nigeriya misolida bu ayrim hududlarda faollikning pasayishi bilan bog'lanadi, ammo ushbu bog'liqlik ishonchli tarzda isbotlanmagan. Ishtirokni oshirmoqchi bo'lgan subyektlar shoshilinchlik va norozilik hissini kuchaytiradi: AQSHdagi "ishtirokchi dezinformatsiya" va Janubiy Koreyadagi hissiy soxta xabarlar tarafdorlarni e'tiqoddan harakatga o'tkazgan, biroq bu ta'sirning ko'lami talqinga bog'liq. Raqobatsiz tizimlarda esa, O'zbekiston va Qozog'iston misollariga ko'ra, birinchi o'ringa dezinformatsiyadan ko'ra axborot kanallari va davlat resurslari ustidan nazorat chiqadi.

Saylovdagi ishtirokni himoya qilish bir necha yo'nalishda ishlashni talab etadi: shaffof saylov kommunikatsiyasi va faktcheking, platformalar mas'uliyati hamda mediasavodxonlik. Biroq mavjud tajriba bu choralarning har biri alohida yetarli emasligini va ba'zilari teskari natija berishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bois har bir chora so'z erkinligiga yangi xavf tug'dirmasligi kerak. Keyingi tadqiqotlar uchun dezinformatsiyaning saylovdagi faollikka ta'sirini sababiy jihatdan baholaydigan empirik ishlar, shuningdek, Markaziy Osiyo saylovlarida axborot muhitini birlamchi ma'lumotlar asosida o'rganish dolzarb bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bader M. Disinformation in Elections // Security and Human Rights. – 2018. – Vol. 29, № 1–4. – P. 24–35. – DOI: https://doi.org/10.1163/18750230-02901006.

2. Kurmanov B. Digital Citizen Activism in Central Asia: Beyond Contestation and Cooperation // Polarization, Shifting Borders and Liquid Governance / ed. by A. Mihr, C. Pierobon. – Cham: Springer, 2023. – P. 155–175. – DOI: https://doi.org/10.1007/978-3-031-44584-2_9.

3. Balogun O. S. The Politics of Fake News and Sustaining Nigeria's Democracy: 2023 General Elections in Retrospect // Journal of Governance and Development. – 2025. – Vol. 21, № 2. – P. 16–28. – DOI: https://doi.org/10.32890/jgd2025.21.2.2.

4. Centre for Democracy and Development. Distorting Nigeria's Elections? How Disinformation Was Deployed in 2023. – 8 June 2023. – URL: https://news.issuelab.org/resource/distorting_nigeria_s_elections_how_disinformation_was_deployed_in_2023.

5. Go S., Lee M. Analysis of Fake News in the 2017 Korean Presidential Election // Asian Journal for Public Opinion Research. – 2020. – Vol. 8, № 2. – P. 105–125. – DOI: https://doi.org/10.15206/ajpor.2020.8.2.105.

6. Prochaska S., Duskin K., Kharazian Z., Minow C., Blucker S., Venuto S., West J. D., Starbird K. Mobilizing Manufactured Reality: How Participatory Disinformation Shaped Deep Stories to Catalyze Action during the 2020 U.S. Presidential Election // Proceedings of the ACM on Human-Computer Interaction. – 2023. – Vol. 7, № CSCW1. – Article 140. – 39 p. – DOI: https://doi.org/10.1145/3579616.

7. OSCE/ODIHR. Republic of Uzbekistan, Presidential Election, 24 October 2021: ODIHR Election Observation

ISSN 3060-5059 (Online)

Mission Final Report. – Warsaw, 22 April 2022. – URL: https://cdn.osce.org/sites/default/files/f/documents/9/e/516435_0.pdf.

8. Малькевич А. А. Роль социальных сетей в протестном политическом участии граждан // Управленческое консультирование. – 2020. – № 1. – С. 35–42. – DOI: https://doi.org/10.22394/1726-1139-2020-1-35-42.

9. Nguyen T. A., Bui T. C., Sokolovskiy K. Social Media and Political Communication: Studying the Interactive Component // Journal of Ethnic and Cultural Studies. – 2022. – Vol. 9, № 4. – P. 187–200. – DOI: https://doi.org/10.29333/ejecs/1112.

10. Lyons T. Replacing Disputed Flags With Related Articles // Facebook Newsroom. – 20 December 2017. – URL: https://about.fb.com/news/2017/12/news-feed-fyi-updates-in-our-fight-against-misinformation/.